



KRIPTOVALYUTALARNI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISH

Urunoyev Jo'rabek

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi
email:dmirzayeva743@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17498984>

ARTICLE INFO

Received: 27th October 2025
Accepted: 29th October 2025
Published: 31st October 2025

KEYWORDS

Kriptoaktiv, kriptovalyuta, bitcoin, litsenziya, raqamli aktiv, iqtisodiy operatsiyalar, xorijiy amaliyot, integratsiya, elektron hamyon, xalqaro va milliy standartlar.

ABSTRACT

Kriptovalyutalar, kriptoaktivlar va bitcoinlar doim kishilarni qiziqtirib, o'ziga jalb etib kelganligi ma'lum. Kriptovalyutalar jahon hamjamiyatida jadal sur'atlar bilan ildamlayotgani, tez fursatlarda ommalashib, o'zining anonimlik xususiyati yanada oshirayotganligi bois ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Ushbu maqolada kriptovalyutalarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha samarali mexanizmlar, ilg'or va rivojlanagan davlatlarning kriptovalyutalarning huquqiy maqomini qanday belgilashi kabi dolzarb masalalar tahlil etiladi.

Mazkur tadqiqot qiyosiy-huquqiy, sotsial-eksperiment, mantiqiy, formal yuridik, statistik-matematik, tizimli tahlil metodlar yordamida tahlil qilingan.

XXI asrga kelib kriptovalyutalar jahondagi aksariyat mamlakatlarning moliyaviy-iqtisodiy tizimlarida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xo'sh, o'zi kriptovalyuta nima? Kriptovalyuta bu---markazlashmagan, banklar yoki hukumat kabi markaziy hokimiyat tomonidan tartibga solinmaydi, aksincha ular markazlashtirilmagan, ya'ni ular kompyuter tarmog'i tomonidan boshqariladi.¹Demak, ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, davlat organlari, xususan Markaziy bank va boshqa moliyaviy tartibga solish funksiyasini amalga oshiradigan tashkilotlar kriptovalyutalar bilan bog'liq iqtisodiy operatsiyalarni boshqara olmas ekan. Bundan kelib chiqyaptiki, kriptovalayutalar davlat aralashuviziz va hukumat nazoratidan xolis faoliyat ko'rsatuvchi kriptoaktivlarning bir shaklidir.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda kriptovalyutaning huquqiy tartibga solinish masalasi doim dolzarb bo'lib kelgan. Chunki ba'zi mamlakatlar raqamli pullardan foydalanishni qonuniylashtirib (legallashtirib) qo'ygan bo'lsa, ba'zi mamalaktlar esa qonun darajasida taqiq o'rnatib qo'ygan va bu taqiqni buzgan shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash nazarda tutilgan. Demak, kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solishda yakdil yondashuv jahon hamjamiyati tomonidan hali o'rnatilmagan. Kriptovalyuta-- bu raqamli pul, uni jismona sezib bo'lmaydi.² Demak, kriptovalyutalar an'anaviy pullardan o'zining raqamlashtirilganligi

¹ Cryptocurrency of Digital money

² Kriptovalyuta nima va u qanday ishlaydi? Avgust 2021

bilan keskin farq qiladi. Ya'ni ularni real hayotda ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi. Ular faqatgina raqamlashgan holda elektron hamyonlarda ko'rish mumkin.

Kriptoalyutalar qayerda saqlanadi? Kriptoalyutaning hamyoni bor. Uni ishlatish uchun foydalanuvchi lotin harflari va raqamlari to'plamidan iborat o'z manzilini oladi. U QR kod sifatida ham ko'rsatilishi ham mumkin.³ Demak, kriptoalyutalarni o'zida saqlab beradigan maxsus hamyon, ya'ni blokcheynga kirish uchun ham alohida tartib mavjud. QR kodni skaner qilish orqali ham foydalanuvchilar o'zlarining blokcheyndagi onlayn manziloga kirishga dastur olishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili bandiga keladigan bo'lsak, Ural davlat iqtisodiyoti universiteti professori M.S Magamin dunyo bo'ylab kriptoalyutalarni tartibga solish darajalariga qarab uchta guruhga ajratadi: kriptoalyuta aylanmasini qabul qiluvchi davlatlar, o'tish bosiqchida bo'lgan davlatlar va kriptoalyutalar aylanishini taqiqlovchi davlatlar.⁴ Demak, biz shartli ravishda dunyodagi 200 dan oshiq mamlakatlarni u xoh rivojlangan bo'ladimi yoki rivojlanayotgan, iqtisodiy jihatdan qudratlimi yoki aksincha farqi yo'q, biz ular haqida uch xil yondashuv mavjudligi haqida bilishimiz kerak, ya'ni kriptoalyutasini ma'qullab, legallashtirgan, legallashtirish jarayonidagi va legallashtirishga qarshi davlatlar haqida umumiy tasavvur hosil qilish o'rinli.

Shu bilan birga mashhur olim I.M. Seredov kriptoalyutalarning huquqiy statusini to'rtta guruhga bo'lgan, ya'ni pul vositasiga, to'lov vositasiga, tovarga va pul surrogatiga.⁵ Darhaqiqat, kriptoalyutalarga sarmoya kiritish yuqori xavflarga duch kelishni anglatmaydi. Esmaeilzadeh, Hemang va Cousins tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'proq respondentlar kriptoalyutalar mumkin bo'lgan muammolar va tizimli xavflardan ko'ra katta potentsial qiymatga ega deb hisoblashadi.⁶ Ushbu fikrga munosabat sifatida kriptoalyutalar yaqin kelajakda qadrlanishi va moliya va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, kriptoalyutalar bilan bog'liq har qanday muammoli vaziyatlar, misol uchun kiberjinoyatchilik, firibgarlik, texnik nosozliklar kriptoalyutalar sabab keladigan moddiy qiymat oldida kamroq ahamiyatga egaligi qayd etilgan.

Kriptoalyutalarning jahon bozoridagi ulushi sezilarlidir. Misol uchun, **Amerika Qo'shma Shtatlarida** kriptoalyutalarga bo'lgan munosabat qonuniy tusga ega, ya'ni hukumat kriptoalyutalarga qimmatli qog'ozning bir shakli sifatida yondashadi va ularning

³ Kriptoalyuta va uning turlari, 2009

⁴ Maramigin M.S., *Виды и особенности майнинга современных денежных суррогатов-криптовалют*, KANT №4(25), 2017, 215-219 b.

⁵ Sereda I.M., *Особенности правового регулирования криптовалюты: зарубежный ответ*, Вестник Сибирского юридического института МВД России, №3(40), 2020, 94-98 b.

⁶ Esmaeilzadeh, P.,

Hemang, S., & Cousins, K. (2019). 'Individuals' cryptocurrency adoption: A proposed moderated-mediation model'.

kishilar o'rtasidagi muomalasiga ruxsat bergan davlatdir. AQSH respublikasi federativ davlat bo'lgani tufayli, ya'ni 50 ga yaqin shtatlardan tashkil topgani sabab shtatlar o'rtasida kriptovalyutalarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalalarida q xilma-xil qarashlar, odatlar, yondashuvlar bo'lishi mumkin. Masalan, birgina New York shtatida kriptovalyutalar bilan bog'liq munosabat ishtirokchisi bo'lmoqchi shaxslar BitLicense tashkilotidan maxsus ruxsatnoma olib, so'ngra raqamli valyutalardan foydalanish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda kriptovalyutalarni huquqiy jihatdan tartibga solishning ham alohida tartibi qonun bilan tasdiqlab qo'yilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida kriptovalyutalarning turlari va ularni yuridik jihatdan samarali tartibga solish mexanizmlari belgilab o'tilgan. 2018-yil 3-iyuldagi Prezident qarorida xizmatlar pravayderlarining turlari, kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy, kripto-do'konlar turlari keltirilgan.⁷ Ushbu qaror haqida fikr sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan kripto-do'konlar va kripto-birjalar, umuman olganda kriptovalyutalarning mamlakatimiz bo'ylab tartibga solinishiga yordam beruvchi normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 2022-yil 27-apreldagi farmonida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga litsenziya berish uchun davlat boji miqdori va uni to'lash hamda sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartibtaomillaridan o'tish tartiblari Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.⁸ Demak, ushbu holatni sharhlash asnosida O'zbekistonda kriptovalyutalar bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxslar, albatta, kriptovalyutalar bilan shug'ullanishga rasmiy litsenziya beruvchi tmaxsus vakolatli tashkilot, ya'ni Istiqbolli loyihalar milliy agentligidan ruxsatnoma olishi kerak ekan.

Buyuk Britaniya – kriptovalyuta integratsiyasi bo'yicha yetakchi yurisdiksiyalardan biri hisoblanadi. Mamlakat kriptovalyuta biznesini yuritish uchun eng qulay sharoit yaratadi va ular bilan bog'liq startaplarga davlat darajasida yordam ko'rsatadi. Kriptovalyuta aylanmasini tartibga solish 2014-yildan boshlangan. Buyuk Britaniyaning Moliyaviy faoliyatni boshqarish organi kriptovalyutaning na pul va na valyuta emasligini ta'kidlaydi, shuningdek, Buyuk Britaniyaning moliyaviy qonunchiligi bilan tartibga solinishi mumkin emasligini ko'rsatadi. 2016-yilda Angliyaning Moliyaviy faoliyatni boshqarish va nazorat qilish organida birinchi kriptovalyuta kompaniyasi ro'yxatga olingan. Ushbu kompaniya bilan foyda olish maqsadida Angliyaning Barclays banki hamkorlik qilishni boshladi. Biroq, bunda G'aznachilik jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) sohasidagi qonunchilikni valyuta ayirboshlash bilan shug'ullanuvchi birjalar va boshqa kriptovalyuta kompaniyalariga nisbatan qo'llashni taklif qildi. Shu bilan birga, kriptovalyuta hamyonlarini foydalanuvchilarga taqdim etadigan, ya'ni kriptovalyutalarni saqlash va kriptovalyuta operatsiyalarini amalga

⁷ O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

⁸ "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 2022-yil 27-apreldagi farmoni

oshirish uchun ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot yoki platforma taqdim etadigan kompaniyalarga nisbatan bunday qonunchilik qo'llanilmasligi kerakligini ta'kidlab o'tgan.⁹

Kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish bo'yicha Germaniya ham ilg'or va yetakchi davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Germaniya kriptovalyutalardan foydalanishni qonuniylashtirgan, ya'ni huquqiy tus bergan dastlabki mamlakatlaridan biridir. Germaniyada kriptovalyutalarni tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli organ etib, Germaniya Moliya vazirligi tayinlagan. Germaniya mamlakatida kriptovalyutalardan qanday va qachon foydalanish lozimligini belgilab, mustahkamlaydigan maxsus qonun hujjatlari qabul qilingan. Germaniyada kriptovalyuta sohasida eng markaziy shahar bu Berlindir. Kriptovalyutalardan foydalanish uchun aniq tartib-taomil belgilab o'tilgani bois litsenziya olish masalasi unchalik ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu sababli ham Germaniya aholisi nafaqat bank-moliya sohasida, balki boshqa sohalarda kriptovalyutalardan qonuniy tarzda foydalanishlari uchun sharoit yaratilgan.

Kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish bo'yicha **Xitoy** tajribasini ham alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Xitoy Xalq Respublikasida kriptovalyutalar bilan moliyaviy operatsiyalardan foydalanish 2014-yildan boshlangan bo'lsa-da, Xitoydagi Markaziy bank kriptovalyutalarning Xitoyda ommalashishi ma'qul kelmagach, mamlakat hududida rasman bitcoin va boshqa elektron valyutalarga taqiq o'rnatdi. Negaki Bitcoinning narxi Xitoyda 89 marta oshishi Xitoy Markaziy banki uchun moliyaviy jihatdan zararli edi. Shuning uchun ham, hozirda kriptovalyutalar Xitoy Xalq Respublikasida milliy qonunchiligi bilan tartibga solinmasligi to'g'risidagi huquqiy norma qonun darasida mustahkamlangan.

Argentinada virtual valyutalar Markaziy bankni qonuniy to'lov vositasini chiqarishi mumkin bo'lgan yagona organ sifatida belgilaydigan mamlakat Milliy konstitutsiyasiga muvofiq qonuniy to'lov vositasi emas.¹⁰ Demak, har bir davlatning kriptovalyutalarga nisbatan o'zining qat'iy pozitsiyasiga egaligini hisobga olib, Argentinada milliy qonunchiligida kriptovalyutalar qonuniy to'lov vositasi sifatida foydalanish taqiqlanadi. Shuningdek, Argentinadagi milliy banklar kriptovalyutalar bilan bog'liq har qanday moliyaviy operatsiyalarni rad etadi. Negaki Argentina qonunchiligiga binoan, kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar faqat naqd pul shaklida amalga oshirilishi to'g'risidagi qoida o'rnatilgan. Kanadada kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish masalalarini Finansiylar hisobotlar va tahlillar markazi nazorat qiladi va bu faoliyat uchun mas'ul bo'lgan tashkilot hisoblanadi.

Kanada mamlakatida kriptovalyutalar bilan bog'liq munosabatlar huquqiy jihatdan qonuniy xarakterlanadi, ya'ni soliqqa tortish amaliyoti ham o'rnatilgan. Raqamli valyutani sotishda daromad solig'i yoki sarmoyadan olinadigan daromad solig'i undiriladi.¹¹

⁹ 4

9 Долгиева М. М., *Зарубежный опыт правового регулирования отношений в сфере оборота криптовалюты*, Зарубежное право, №10 (143), 2018, 118-б.

¹⁰ Tax Treatm of Cryptocurrencies, supra note 16

¹¹ Tax Treatment of Cryptocurrencies, supra note 16.

Yaponiyada kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish bo'yich alohida qonunlar qabul qilingan. Masalan, "To'lov xizmatlari to'g'risida"gi qonun, "Fondlar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risida"gi qonunlar amalda mavjud va ushbu qonunlarda belgilab o'tilgan vazifalarni Yaponiya Moliyaviy xizmatlar agentligi va Yaponiya raqamli valyuta birjalar uyushmasi amalga oshiradi. Yaponiyada kriptovalyutalarni yuridik jihatdan tartibga solish ehtiyojini Mt.Gox onlayn valyuta saytiga qilgan kiberhujum sabab bo'lgan. Buning oqibatida 850.000 ga yaqin Bitcoin o'g'irlangan va shu bois ham Yaponiya kriptovalyutalar xavfsizligini ta'minlash, ushbu jarayonda maxfiylik siyosatini yanada rivojlantirish uchun yuqorida keltirilgan qonunlarni qabul qildi va bu qaror o'zini oqladi.

Bangladesh davlatida kriptovalyutalaridan foydalanish qat'iy man etilgan bo'lib, Bangladesh qonunchiligida kriptovalyuta sohasida faoliyat olib borish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi va ushbu qilmishni sodir etgan Bangladesh aholisi 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortilishi mustahkamlangan.

Boliviya mamlakatida kriptovalyutalar rasman, amalda taqiqlangan. Negaki 2014-yilda bir guruh firibgarlar Boliviya aholisini kriptovalyutalar orqali yuqori daromad olishni, 60 kunda 300\$lik sof daromad qilishlarini ta'kidlab, ko'plab fuqarolarni aldab, firibgarlik jinoytini sodir etgan. Shundan so'ng, Boliviya hukumati mamlakatda kriptovalyutalarga aloqador har qanday ishlarni taqiqlashga majbur bo'lgan.

Singapur davlati misolida kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish masalasini tahlil qilsak. Singapur mamlakati kriptovalyutalarni qonuniylashtirgan, ya'ni unga legal xarakter (huquqiy tus bergan) yertakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Singapur o'zining milliy qonunchiligiga kriptovalyutalarni qonuniy to'lov vositasi sifatida e'tirof etib, ulardan foydalanish uchun soliq stavkasini ham alohida mustahkamlab qo'ygan. Misol uchun, Singapurda kriptovalyutalar yordamida moliyaviy xizmatlarni amalga oshirgan shaxslar tegishli tovarning 7% miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i(QQS) to'lashi belgilangan. Singapurda kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish masallasi bilan maxsus moliyaviy tashkilot, ya'ni Pul-kredit boshqarmasi amalga oshiradi. Qo'shimcha qilib aytish joizki, Pul-kredit boshqarmasi nafaqat kriptovalyutalarni huquqiy jihatdan tartibga solish funksiyasini bajarish uchun mas'ul, balki butun mamlakat hududida Markaziy bank vazifani ham bajarib, moliya tizimidagi eng yuqori bo'gin ham hisoblanadi. Shuningdek, agar kompaniyalarning kriptovalyuta aylanmasi 12 oy ichida bir million Singapur dollaridan oshsa, u soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.¹² Ushbu fikrni sharhlaydigan bo'lsak, Singapur davlatida kriptovalyutalardan foydalanish uchun soliqqa tortish amaliyoti joriy etilgan ekan, ya'ni 1 yil mobaynida biror-bir xususiy tashkilot yoki shaxs kriptovalyutalar orqali 1 million dollardan oshiq iqtisdiy munosabatlarga kirishsa, unday vaziyatda mazkur subyekt Singapur qonunchiligiga binoan soliqqa tortilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Endi **Yevropa ittifoqining** kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish bo'yich pozitsiyasini o'rgansak. YI(Yevropa ittifoqi) mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar uchun amal qiladigan maxsus qonun, ya'ni "Raqamli aktivlar to'g'rida"gi normativ-huquqiy hujjat yordamida kriptovalyutalar sohasini tartibga solishga yagona yondashuvni ishlab chiqishni

¹² Riyabchikov D.V., *Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре*,

Образование и право №6, 2023, 242-245 b.

targ'ib qilmoqda. Yevropa ittifoqi rahbarining fikr bildirishicha, agar "Raqamli aktivlar to'g'risida"gi qonun loyihasi ma'qullansa, butun YI tarkibidagi davlatlarning iqtisodiy manfaatlariga birdek mos bo'lgan, jahon andozalariga to'la javob beruvchi maxsus tizim yaratiladi.

Kriptovalyutalarning asosiy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Tezlik. Ya'ni siz bankka borib qimmatli vaqtingizni sarflashga hojat yo'q. Onlayn tranzaksiyalar yordamida foydalanuvchilar masofadan turib, hisob-kitob qilishlariga imkoniyat yaratilgan.

Global. Ya'ni bu faoliyat bilan jahon hamjamiyatidagi aksariyat davlatlar keng miqyosda foydalanadilar. Misol uchun, AQSH, Germaniya, Yaponiya. Moliyaviy integratsiya(almashinuv) dasturlari uchun qulay va sodda tarzda ishlab chiqilgan.

Maxfiylik. Raqamli pullar foydalanuvchilarning elektron hamyonida saqlanib, unga shaxsga doir ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda maxfiylik siyosati olib boriladi.

Auditoriyaning kengligi. Mazkur kriptovalyuta tizimidan butun jahon mamlakatlari bemalol foydalanishlari mumkin.

Pul tranzaksiyalarining arzonligi: Bitcoinlar orqali kriptovalyutalar bilan hisob-kitob qilish odatiy banklardan ancha razonga tushishi mumkin, ya'ni an'anaviy bank moliya tashkilotlaridan foydalanuvchilar yuqori miqdordagi pul operatsiyalarini amalga oshirsalar bank tyomonidan ushlab qolinadigan pul miqdori ham shunga mutanosib tarzda qimmatroq bo'ladi. Ammo kriptovalyutalarda bu kamchilik yo'q, moliyaviy tranzaksiyalar nisbatan ancha hamyonbop qilib ishlab chiqilganini alohida ta'kidlash zarur.

Kriptovalyutalarning **zarali taraflari** haqida fikr yuritadigan bo'lsak, kriptovalyutalar yuqori anonimlik xususiyatiga ega ekanligi bois bir qancha kiberxavfsizlik bilan bevosita va bilvosita bog'liq huquqbuzarliklar yuzaga kelishiga asosiy faktor bo'lmoqda. Ba'zi davlatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, firibgarlar kriptovalyutalar orqali **moliyaviy piramidalar** yaratishyapti. Misol uchun, 2024-yil Toshkent shahrida "Uzbekistan invest.uz" nomli kanal orqali fuqarolardan ko'p miqdorda pul olib, 1 soat ichida shu pul summamasi ikki baravar qilib qaytarish yolg'on va'dasi bilan firibgarlar 10 million pul olgan va kriptovalyutalar yordamida moliyaviy piramida yaratishga uringani bizga ma'lum. Ikkinchi amaliy keysga yuzlansak. 2022-yil Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida bir guruh firibgarlar fuqarolarni ladab, ulardan 500 mingdan pul olib, mazkur firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritilgan pul summalarini 7-8 baravar ustamasi bilan qaytaramiz deb kriptovalyutalar yordamida moliyaviy piramida tashkil etganligi huquq-tartibot organlari tomonidan aniqlangan.

Endi kriptovalyutalarning eng keng tarqalgan turlari haqida fikr yuritsak. Kriptovalyutalar ichida eng mashhur va jahon hamjamiyat tomonidan ijobiy qabul qilingan valyuta bu Bitcoin hisoblanadi

Bugungi kunga kelib, jahonda kriptovalyutalarning 9000 dan ortiq turlari mavjud. Hozirda eng ko'p tarqalgan kriptovalyuta turlari sifatida Bitcoin(BTC), Ethereum(ETH), Tether(USDT), Ripple(XPR), Lityecoin(LTC) va boshqalar kiradi. Bitcoin(BTS)-2009-yilda "Satoshi Nakamoto" taxallusi ostidagi anonim dasturchi bitcoin tushunchasi va uning blokcheyn deb nomlanuvchi asosiy texnologiyasini ommaga tanishtirgan¹³. Bundan kelib chiqadiki, kriptovalyutalarning eng dastlabki variantini yaratish Yaponiyada boshlangan va

¹³ Blochchain Texno. Bitkoin va uning foydalanish asoslari. Oktabr 2023

xulosa qilish mumkinki, Yaponiya kriptovalyutalar orqali moliyaviy operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi ilg'or davlat hisoblanadi. Ethereum kriptovalyutasini rossiyalik-kanadalik olim Vitalik Buterin yaratgan. Rasman 2015-yil iyul oyidan boshlab Euthereum kriptovalyutasi ish boshlagan. Euthereumning maqsadi-Bitcoin kabi oddiy to'lov vositasi emas, balki smart-kontraktlar va markazlashmagan ilovalar(DAPPS) yaratishdir.¹⁴Mazkur kriptovalyutani mohiyatini sharhlaydigan bo'lsak, Euthereum aqlli shartnomalarni amaliyotda qanday ishlashini va desentralizatsiyalashgan programmalarini ishlab chiqishni asosiy maqsad etib olgan ekan.

Ripple (XRP) 2012-yilda AQSH dagi Ripple Labs kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, aynan Ripple-- bu banklar tomonidan transchegaraviy va pul o'tkazmalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan tarmoq bo'lib, fiat va raqamli valyutalar almashinuvini osonlashtiradi¹⁵. Tether – bu fiat valyutalaridan raqamli usulda foydalanishni osonlashtirish uchun mo'ljallangan blokcheyn bilan jihozlangan platforma¹⁶. Demak, tether boshqa odatiy kriptovalyutalardan farqli ravishda, xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishda foydalanuvchilar uchun nisbatan soddalar yaratilgan bo'lib, shuningdek, u albatta blokcheyn(raqamli hamyon) bilan bevosita bo'g'liq hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish masalasi doim dolzarb bo'lgan. Jahondagi barcha davlatlarda ushbu masalada umumiy, yagona yondashuv mavjud emasligi sabab kriptovalyutalarni yuridik tartibini, uning huquqiy maqomini belgilash qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ko'plab davlatlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda kriptovalyutalar qonuniy xarakterga ega, ya'ni ular o'sha mamlakatlarning milliy qonunchiligida qonunan mustahkamlab, huquq va majburiyatlari alohida belgilab o'tilgan. Lekin boshqa mamlakatlar kriptovalyutalarning yuridik statusini belgilash va uni tartibga solishda qat'iy pozitsiyaga ega, ya'ni ushbu davlatlarda kriptovalyuta bilan bog'liq har qanday moliyaviy operatsiyalar man etilgan. Bu borada davlatimiz ham o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega. Ya'ni O'zbekistonda kriptovalyutalar bilan bog'liq har qanday faoliyatni qonun jihatdan tartibga solib turadigan maxsus vakolatli muassasalar mavjud va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilgan.

References, Литературы, Adabiyotlar:

1. Cryptocurrency the World of Digital Finance.
2. (<https://invexi.org/uz/press/cryptocurrency-the-world-of-digital-finance/>)
3. nance/)
4. 2.Kriptovalyuta nima va u qanday ishlaydi?, Avgust 2021.
5. <https://depozit.uz/news/kriptovalyuta-nima>
6. 3. Kriptovalyuta va uning turlari,2009.(<https://tarix.sinaps.uz/hodisa/kriptovalyuta/>)
7. 4.Maramigin M.S., Виды и особенности майнинга современных денежных суррогатов-криптовалют, KANT №4(25), 2017, 215-219 b.
8. 5.Sereda I.M., Особенности правового регулирования криптовалюты: зарубежный
9. ответ, Вестник Сибирского юридического института МВД России, №3(40), 2020, 94-98 b

¹⁴ Ethereum nima va u qanday ishlaydi?Cryptomus, Iyun 2024

¹⁵ Blockchain Texno. Ripple (XRP)nima? Ripple afzalliklar va kamchiliklar.

¹⁶ Driving the future of Money, 2024

11. . Esmaeilzadeh, P., Hemang, S., & Cousins, K. (2019). 'Individuals' cryptocurrency adoption: A proposed moderated-mediation model'.
12. 7. "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. <http://lex.uz/docs/-3806053>
13. 8. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 2022-yil 27-apreldagi farmoni
14. <http://lex.uz/docs/-5985785>
15. 9. Долгиева М. М., Зарубежный опыт правового регулирования отношений в сфере
16. оборота криптовалюты, Зарубежное право, №10 (143), 2018, 116-129 б.
17. 10. Tax Treatment of Cryptocurrencies, supra note 16
18. 11. Tax Treatment of Cryptocurrencies, supra note 16.
19. 12. Riyabchikov D.V., Основные аспекты регулирования криптовалюты в Сингапуре, Образование и право №6, 2023, 242-245 б.
20. 13. Blockchain Texno. Bitcoin va uning foydalanish asoslari. Oktabr 2023.
21. <https://www.blockchaintexno.uz/news/bitcoin-nima%3F>
22. 14. Ethereum nima va u qanday ishlaydi? Cryptomus, Iyun 2024. <https://cryptomus.com/uz/blog/what-is-ethereum-eth-and-how-it-works?srsId=AfmBOorgY2xTN9zFpaVkBwBrJutORJ05gpqsA9SNp5NwpNmBPDsnMcK6Y>
23. works?srsId=AfmBOorgY2xTN9zFpaVkBwBrJutORJ05gpqsA9SNp5NwpNmBPDsnMcK6Y
24. 15. Blockchain Texno. Ripple (XRP) nima? Ripple afzalliklari va kamchiliklar. [https://www.blockchaintexno.uz/news/ripple-\(xrp\)-nima%3F](https://www.blockchaintexno.uz/news/ripple-(xrp)-nima%3F)
25. 16. Driving the Future of Money, 2024. (<https://tether.to/en/>)